

ABU NASR FAROBIYNING ILMIY MEROSIDA DAVLAT XIZMATCHISI
MA'NAVIYATINING TARIXIY ILDIZLARI

Malikov Behzodjon Qurolovich

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri" nomli asarida davlat fuqarolik xizmati tizimini ma'naviy sog'lomlashtirish, davlat va xizmat nazorati shakllari, ma'naviyati talablarini ta'minlash, ma'naviy baholash mezonlaridan kadrlarni tanlash, taqsimlash, imtihon qilishda foydalanish mexanizmlari haqida fikr mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: davlat, ma'naviyat, qadriyat, odob-axloq kodeksi, etika, devon, fozil, madina kengash

Аннотация: В статье излагаются мнения о духовном совершенствовании системы государственной гражданской службы, формах государственного и служебного контроля, механизмах обеспечения духовных требований, использовании духовных критериев оценки при подборе, распределении и проверке кадров в произведении Абу Насра Фароби «Город добродетельных людей».

Ключевые слова: государство, духовность, ценность, кодекс поведения, этика, деван, добродетель, Мединский совет

Abstract: The article presents opinions on the spiritual improvement of the state civil service system, forms of state and official control, mechanisms for ensuring spiritual requirements, and the use of spiritual evaluation criteria in the selection, distribution, and screening of personnel in Abu Nasr Farobi's work "The City of Virtuous People."

Keywords: state, spirituality, value, code of conduct, ethics, devan, virtue, Medina Council

Forobiyning boshqaruv madaniyatiga doir qarashlari tarkibida davlat va jamiyat boshqaruvi, ularni boshqaruvchi rahbar shaxslar, amaldor va mansabdorlar masalalari yuzasidan bayon qilingan ko'plab fikr-mulohazalar o'z aksini topgan. U o'z asarlarida bu masalalarni bir butunlikda tahlilga tortadi. Jamiyat haqida so'z yuritdimi, uning boshqaruvchi amaldorlarining shaxsiy va kasbiy xarakteri, amal xususiyatlari haqida ham mulohazalarini bayon qiladi.

Fozil jamiyatning qanday hodisa ekanligini tavsiflashdan oldin Forobiy umuman jamiyatning mohiyatini bilishga e'tibor qaratadi: "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan kishilarni bir birlariga etkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan etuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa

a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va urning aholi yashaydigan qismiga o'rnashtirilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi"¹¹.

Ushbu fikrdan yakka shaxsning ham, ko'pchilik insonlarning ham o'z maqsadlariga etmoqlari uchun jamiyatning zarurligi, ya'ni jamiyatning mohiyati oydinlashadi. Forobiyga ko'ra, har bir davlatning maqsadi ham shundan iborat, biroq fozil jamiyat bo'lish uchun bu birlashuvning o'zigina etarli emas. Yuksak baxt saodatga erishish maqsadi "har turli juz'iy narsalarni o'zida birlashtiradi"¹². Forobiy ularni sanab o'tar ekan, ana shu maqsadda kishilarni birlashtirgan shahar (davlat) – fazilatli shahar, kishilar jamoasi – fazilatli jamoa bo'lishini ta'kidlaydi. U turli masalalarni sharhlash davomida fozil jamiyat uchun zarur deb hisoblagan bir qator xususiyatlarni qayd etib o'tgan: "Agar to'quvchi, kosib va shahar (davlat) fuqarosining har biri o'zining nega yashayotganini bilmasa, maqsad va manfaat darajasi mavhum bo'lsa, har birining ayrimayrim maqsadlari ham noma'lum bo'ladi, bu xuddi agar bo'laklardan iborat umumiyatning maqsadi noma'lum bo'lsa, uning bir bo'lagining maqsadini aniqlab bo'lmazligiga o'xshaydi"¹³. Maqsad va manfaati mavhum fuqarolar davlatning tanazzulga yuz tutishiga asos bo'ladi.

Fozil jamiyatga xos yana bir xususiyat inson hayotida ilohiy va insoniy yaxshiliklarning umumlashgan shaklining amal qilishidir. "Ilohiy yaxshiliklar insoniy yaxshiliklarga ta'sir o'tkazadi. Agar ilohiy ezguliklar o'zlashtirilsa, u holda insoniy yaxshiliklar ham o'zlashtiriladi, faqat insoniylik o'zlashtirilganda esa ilohiylarini boy berib qo'yish mumkin. Insoniy ezguliklar, ya'ni xayrli narsalarga kuch, go'zallik, boylik, bilim va boshqalar kiradi"¹⁴. Fozil jamiyatda Forobiy qarashlariga ko'ra, ilohiy ezguliklar insoniy ezguliklarga yo'l ochadi. Ushbu qarashga misol uchun xayr-sadaqa ulashish, ehson qilish, vaqf ajratish, zakot berish kabi milliy va diniy urf-odatlar rivojlanib, asta-sekin jamiyat farovonligi uchun xizmat qiluvchi harakatlarga aylanganligini aytish mumkin. Yoki ilohiy ezgulik, yaxshilik namunasini namoyish etgan juda ko'p donishmandlarning xatti-harakatlari, faoliyatlari minglab, millionlab kishilarga o'z ta'sirini o'tkazgani ham shu jumladan. Demakki, diniy asoslangan ezguliklarni holati va o'rniga qarab insoniy ezguliklarga evriltirish lozim, ayni vaqtda ularning ilohiylik e'tiborini ham saqlab qolish kerak. "Forobiy nikoh masalasini misol keltirar ekan, uning odamlar nazdida ilohiyligi, ayni vaqtda insoniy hodisa ekanligini qayd etadi va uning ilohiyligini saqlab qolgan holda insoniy jihatlariga ko'ra qonuniy meyorlarini tartibga solish zarurligi, uning ehtiroslar natijasiga aylanib qolishiga yo'l qo'yib bo'lmazligini ta'kidlaydi. Shunda u ilohiy va shu bilan birga qonuniy bo'lgani uchun

¹¹ *Abu Nasr Forobiy*. Fozil odamlarshahri. – Toshkent: Abudulla Qodiriy, 1993. – 186 b.

¹² *Abu Nasr Forobiy*. Fozil odamlarshahri. – Toshkent: Abudulla Qodiriy, 1993. – 186 b.

¹³ *Abu Nasr Forobiy*. Fozil odamlarshahri. – Toshkent: Abudulla Qodiriy, 1993. – B. 59.

¹⁴ *Abu Nasr Forobiy*. Fozil odamlarshahri. – Toshkent: A.Qodiriy, 1993. - B. 19.

muvozanatda bo'ladi, oyoqosti yoki beta'sir bo'lishdan, yo'qolib ketishdan asraladi, unga hurmat va hushyorlik bilan qarash shakllanadi"¹⁵.

Bundan tashqari, Forobiy yoshga ko'ra tabaqalanish to'g'risida fikr bildiradi va bu tabaqalanishni xulq-atvor va xatti-harakatlarga sabab bo'luvchi tabiiy xislatlarga bog'lab bayon qiladi. Uningcha, jamiyat fuqarolari yoshga ko'ra uch turga mansub bo'ladilar. Keksalar (yoki katta yoshlilar), yoshlar, bolalar. Yosh fozil jamiyatda fuqarolarning o'rni va vazifalarini belgilab beradi hamda bu hech kimda norozilikka sabab bo'lmaydi. Katta yoshlilar jamiyatda boshqaruv maqomiga ega bo'lmog'i lozim. Chunki, ular hayotning ko'p baxtli va qayg'uli hodisalarini boshdan kechirib, katta tajriba hosil qilgan bo'ladilar. "Ayni vaqtda yangi zamonda vujudga kelayotgan voqea-hodisalarning mohiyatini ushbu tajriba tufayli ular tezda aniqlay oladilar va muvofiq chora-tadbirlar ishlab chiqadilar. Yoshlik esa o'z mohiyatiga ko'ra kuch-g'ayrat, shijoat va harakatchanlik davridir. Shu tufayli yoshlar ko'proq ijro etishda mahorat kasb etadilar va ko'rsatilgan yo'l-yo'riqlar bo'yicha g'oyalar va dasturlarni amaliy ishga aylantiradilar. Bu jihatdan yoshlar fozil jamiyatning o'zagini tashkil etadilar"¹⁶. Bolalar tabiiy xislatlarga muvofiq holda intiluvchan bo'ladilar. Ularning istaklari katta yoshlilar va yoshlar xatti-harakatlarida ifodalanadi. Shuningdek, bolalar o'sib-ulg'aygunlariga qadar tarbiyaga muhtojdirlar. Tarbiya esa ikki yo'l bilan amalga oshiriladi. "Birinchisi – qanoatbaxsh so'zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi munosabat yordamida hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi. Ikkinchi yo'l – majbur etish yo'lidir". Forobiy fikriga ko'ra, "fozil jamiyat fuqarolarining darajalari mana shunday tabiiy tartib asosida bo'lgani uchun, uning afzallashuvi – taraqqiyoti ham tabiiy taraqqiyotga aylanadi"¹⁷.

Forobiy qarashlariga ko'ra, fozil jamiyatda kasb-hunarlar alohida turlardan tashqari, jamiyat bo'laklariga muvofiqlashtirilishi lozim. Jamiyatning har bir bo'lagi o'sha er aholisining asosiy mashg'uloti – kasb-koridan kelib chiqib, umumiyatga xizmat ko'rsatishi kerak. Shuningdek, "jamiyatda yaxshi yo'naltirilgan yaxlit tartib vujudga keladi. Ularga nisbatan joriy etiladigan intizom, qoidalar ham osonlashadi. Jamiyat bo'laklari kasb-korining aralashib ketishi davlat tuzimiga zarar etkazib, unga turli chalkashliklar va har xil illatlarning kirib qolishiga kuchli sabab bo'ladi"¹⁸.

Mustaqillik yillarida milliy ma'naviy qadriyatlar davlat boshqaruvida ustuvor ahamiyat kasb etdi. O'zbekistonning siyosiy va ma'naviy hayotida davlat xizmatchilari milliy qadriyatlar asosida faoliyat olib borishi zarurligi ta'kidlanmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan davlat boshqaruvida xalqparvarlik va insonparvarlik qadriyatlarini mustahkamlash yo'lga qo'yildi. Zamonaviy davlat boshqaruvi tizimi milliy meros va zamonaviy boshqaruv tamoyillarini uyg'unlashtiradi.

¹⁵ Ravshanov F. Davlat fuqarolik xizmatchisining ma'naviy qiyofasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2023. – B. 95.

¹⁶ *Abu Nasr Forobiy*. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abudulla Qodiriy, 1993. – B. 30

¹⁷ Ravshanov F. Davlat fuqarolik xizmatchisining ma'naviy qiyofasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2023. – B. 99.

¹⁸ *Abu Nasr Forobiy*. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abudulla Qodiriy, 1993. – B. 48.

Milliy merosimiz davlat xizmatida bir qator axloqiy tamoyillarni shakllantirishga zamin yaratdi. Davlat xizmatchilari o'z faoliyatida halollik va adolatni bosh tamoyil sifatida belgilashi kerak. Xalq manfaatlari har doim ustuvor bo'lishi lozim. Davlat xizmatchilari o'z vazifalariga mas'uliyat bilan yondashishi zarur. Davlat xizmatida yuqori ma'naviy va ma'rifiy saviya talab qilinadi. Davlat xizmatchilari o'z fuqarolariga hurmat bilan munosabatda bo'lishlari kerak.

Milliy ma'naviy merosimiz davlat boshqaruvining ma'naviy-axloqiy tamoyillarini belgilashda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Qadimiy adolatparvarlik, islomiy halollik va jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalari zamonaviy davlat xizmatining axloqiy poydevorini shakllantirishda hal qiluvchi o'rin tutadi. Bu meros, ayniqsa, davlat xizmatchilarining xalq manfaatlarini ustuvor qo'ygan, halol va mas'uliyatli faoliyat yuritishi uchun yo'l boshchi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Malikov B.Q. Davlat xizmatini tashkil etishda "Yapon mo'jizasi" va uning o'ziga xos xususiyatlari // "Imom Buxoriy saboqlari" jurnalining 2021 yil 2-soni b.91.
2. Malikov B.Q. Xitoy xalq respublikasining davlat xizmati siyosati tarixida // O'zMU xabarlarini jurnalining 2021 yil 1/6/2 100-103 bet.
3. Malikov B.Q. Amir Temurning davlat boshqaruvidagi siyosiy tajribalar // QarDU xabarlarini 1-son-15.02.2022 120-123 b.
4. Malikov B.Q. Davlat xizmatlarini kategoriyalashtirish siyosatiga doir metodologik ta'limotlar // World scientific research journal (ISSN: 2472-3703.Volume-10_Issue-1_December 2022) P.p.188-183
5. Malikov B.Q. Davlat xizmatlarini kategoriyalashtirish siyosati istiqbollari // World scientific research journal (ISSN: 2472-3703.Volume-10_Issue-1_December 2022). P.p.200-203
6. Malikov B.Q. Davlat kadrlar siyosatini shakllantirish va amalga oshirishning xorijiy tajribalari // World scientific research journal (ISSN: 2472-3703.Volume-10_Issue-1_December 2022) P.p.213-215
7. Malikov B.Q. Davlat xizmatlarini ijtimoiy-iqtisodiy yo'naltirish konsepsiyalari // World scientific research journal (ISSN: 2472-3703.Volume-10_Issue 1_December 2022) P.p.193-195
8. Malikov B.Q. Alisher Navoiyning vatan va davlat xizmatchisi sifatidagi siyosiy qarashlari // "Pedagogs" international research journal (ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995. Volume-27, Issue-1, February – 2023) P.p.78-80
9. Malikov B.Q. Davlat xizmatlari to'g'risidagi qarashlar evolyusiyasining nazariy asoslari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences ((E)ISSN:2181-1784.SJIF 2023 = 6.131 // ASI Factor = 1.7 3(1/2), Jan., 2023.) P.p.621-623

10. Malikov B.Q. Davlat xizmatini rivojlantirishda kategoriyalashtirish siyosatiga sivilizatsion yondashuvlar // World scientific research journal (ISSN: 2472-3703 Volume-12_Issue-1_February-2023) P.p.158-161